O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INTSITUTI.

# "YOG'OCH O'YMAKORLIGI"

**(Fanidan ma'ruzalar matni)**

Bilim soxasi: 100000-Ta'lim
Ta'lim soxasi: 140000-O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani.

Bakalavriat yo'nalishi: 5140700-"Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi"

JIZZAX-2006

Annotatsiya

Ushbu ma'ruzalar matni 5140700 “Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi” bakalavriat yo’nalishi kundizgi bo’lim talabalari uchun yozilgan. Ushbu ma'ruzalar matnida o’ymakorlik tarixi, o’ymakorlik san'ati, uyda ishlatiladigan asboblarni ishga sozlash va ishlatish, naqsh elementlarini qog’azga chizish, duradgorlik asboblari, duradgorlik birikmalari, nusxa ko’chirish, o’yma ramka va quticha turlari, naqshlarni o’yish, pardozlash, shirma yasash va panjara to’qish xaqida bayon qilingan.

Tuzuvchilar: o’qituvchi. X.Sangirov

Taqrizchilar: o’qituvchi. Jizzax malaka oshirish instituti amaliy san’at kafedrasining muduri.
dots. O’rol Maxmudov

Ma’ruza matni A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika institutining o’quv-uslubiy birlashmasida ko’rib chiqilgan va tavsiya etilgan.

Mazkur ma'ruzalar matni A. Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika institutining 2007 yil 2 mart dagi ilmiy kengashda №_6_bayonnoma bilan tasdiqlandi.

1-MA'RO’ZA. 2 SOAT

MAVZU: YOG’OCH O’YMAKORLIGI TARIXI, MAKTABLARI, USTALAR VA ULARNING IJODIY FAOLIYATI. REJA:

1. Amaliy san'atning tarixiy rivojlanish jarayoni,
2. Temuriylar davri Yog’och uimakorligi san'ati.
3. Yog’och o’ymakorligining asrimizgacha bulgan rivoji.
4. Yog’och uimakorligi maktablari.
5. Yog’och uimakorligi ustalarining xayoti va faoliyati.

Adabiyotlar: 3; 4; 5; 6; 7; 9; 12; 14; 16; 22; 23; 24.

Amaliy san'atning tarixiy kelib chiqishi insoniyatning bolalik davriga borib taqaladi. Bashariyat ulgayib borgan sari amaliy san'at xam yuksala bordi, Yashash uchun kurash mavjud ekan, yaxshi yashash uchun extiyoj kuchaiib borish jarayonida qul mex,natidan akuliy mexnat ajralib chiqa boshladi. Ov qurollari, uy-ro’zgor buyumlariga bulgan extiyoj kuchaiib bordi. Avvalo tosh uimakorligi, suyak o’ymakorligi, keyinchalik esa Yog’och uimakorligi xam sekin astalik bilan o’z rivojini topdi.

Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy tarakdayotda katta o’zgarishlar sodir buldi. Bu esa fan va san'at rivojida muxim axdmiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrlarda paydo buldi. Xalqning turmushi xulq va odatlari, yutuq va maglubiyatlari ularning asarlarida o’z ifodasini topib bordi. Xar bir davrda mavjud bulgan ana shunday san'at va san'atkorlar xayot go’zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol topdirib bordi, ularni tengliq ozodliq birodarlik va yorqin kelajakka intilish yo’lidagi kurashga da'vat etdi.

Arxeologik qazish ishlari natijasida Surxon voxasidagi Yumaloq tepa tubidan topilgan Yog’och o’ymakorligi topilmalari mazkur joylarda bir, bir yarim ming yil muqaddam san'atning bu turini yaxshigina rivoj topganligini olimlarimiz o’z izlanishlarining maxsuli sifatida isbot etib berishdi. Xali-xano’z bunday noyob topilmalar nafaqat Surxon voxasida, balki Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Farg’ona vodiysidagi Sux va boshqa «shli bo’lgan san'at asarlari topilmada.

Chingizxon bosqinchiligi tufayli X asrga kelib madaniy xayot izdan chiqdi. O’rta Osiyodagi Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx va

Mavr kabi bir qator shaxarlar Chingizxon boshchilik qilgan mo'g'il bosqinchilari tomonidan ostin-ustin qilib tashlandi.
Bu vayrongarchiliklarga XIV asrning ikkinchi yarmida oqsoq Jaxongir Amir Temur O'rta Osiyo xalqlarini birlashtirish orkali chek qo'ydi va xalqimizning madaniyati, san'ati, shu jumladan, Yog'och o'ymakorligining rivojiga o'zi qurdirgan obidalari, asori-atiqalari bilan o'z xissasini qo'shdi. Samarqandga yirik-yirik san'atkorlar, shoiru-ulamolarni, xunarmandu-ustalarni tuplab ko'plab jom'e masjidlari, madrasalar, xonaqolar, saroylar va boshqa ulkan inshootlar qurdirdi. Amir Temur vafotidan so'ng Temuriylar O'rtasida bulgan o'zaro to'qnashuvlar tufayli madaniyat rivojiga salbiy ta'sirini utkazdi.

XVI asrda arxitektura inshootlarining kurinishi yanada takomillashdi, ko'plab jamoat binolari, karvonsaroylar, ko'priq sardoba, shaxarlarda xammom, tim va bopha savdo rastalari qurila boshlandi. Monumental binolarning tarxi, qiyofalariga o'zgartirishlar kiritiddi, xunarmandlarning artellari vujudga keddi. Jom'e masjidlari saroy tipida serxasham kqilib kurildi, go'zar va max,allalardagi masjillar qishlik va yozlik qilib qurilib, katta ayvonlar o'yma ustunli va eshiklari xam o'yma bezaklar bilan bezatildi.
XVII asrga kelib O'rta Osiyoda avj olgan o'zaro feodal nizo va urushlar Eronning Xivaga qilgan xujumi va boshqalar arxitektura va badiiy xunarmandchilikka salbiy ta'sir kursatdi. musavvir va xunarmandlar Xindistonga, Boburiylar saroyiga ketishga majbur buldilar. XVIII asr oxirlariga kelib me'morchidik va amaliy bezak san'ati rivojlana boshladi. Saroy qURilishlarIda xalq me'morchiligi kompozitsiya uslublaridan foydalanib, ich xobli, xovo'z, ko'p ustunli ayvon, sinchli imoratlar durila boshladi.|

Asrimizga qadar san'at asarlari turli qirginbarot tufayli vayronalar ostida dolgan bulsa, asrimizda "qizil kulanka" ostida qoldi. Xalqimizning o'qimishli, bilimdon, ziyoli farzandlarini turli sabablarni rukach qilib katag'on qilishdi, Xunarmand ustalarni esa shaxsiy boylik orttirishda ayblab faoliyatlari tuxtatib quyildi. Biroq xalqimizning fidoyi farzandlaridan ijodkor ustalar usta Shirin Murodov, Mirxamid Yunusov, Shamsiddin G'ofurov, Yunus Ali Musaev, Usmon Ikromov, Quli Jalilov, Sulaymon Xo'jaev, Xaydar Najmiddinov, Toshpo'lat Arslonkulov, Maqsud qosimob, Maxmud Usmonov, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Maxmud Oblaqulov, Abdulla Boltaev, Qodirjon Xaydarov, Ota Polvonov, Abdurazzoq Abduraxmonov va boiha bir qatorlari o'z xunar sirlarini maktabda va maktabdan tadhari

muassasalarda yoshlarga urgatishni yulga quydilar, Keyinchalik esa o’z uslubi, yunalishiga ega bulgan Xiva, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Qo’qon kabi yirik Yog’och o’ymakorlik maktablari rivoj topdi.
Xiva Yog’och o’ymakorligining rivojida Ota Polvonov va Sapo Boqbekovlarning ijodiy faoliyati aloxida urin tutadi. Bu maktab o’ymakorligi boiha maktablarga qaraganda o’yma naqshlarning maydaligi, zaminining kamligi, novdalarning zichligi, badiiy to’zilishi jixatidan uynoqiligi, ya'ni novdalarning spiralsimonligi aloxida axamiyat kasb etadi.

Samarqand Yog’och o’ymakorligi maktabida esa o’ymalarning maydaligi, naqsh namunasining murakkabligi, usimliksimon girix; va gulli girix naqshlarning ko’p ishlatilishi bilan xamda o’yma yo’zasining ranglanishi bilan ajralib turadi. Ijodkor ustalar Abduxofiz Jalilov, Asatilla, Nasrulla, Nurali Nazrullaevlardir.

Toshkent o’ymakorligi maktabining yirik namoyondalaridan Sulaymon Xo’jaev, Maqsud Kasimov va Ortiq Fayzullaevlardir. Toshkent maktabining boshqa maktablardan farqi shundaki, o’ymasining ko’p qavatligi, O’rtacha chuqurlikda uyilib, islimiy, geometrik ramziy naqshlar ko’proq ishlatiladi. Yirik ustalardan Xaydar Najmiddinov va Qodirjon Xaydarovlardir. Bu maktab o’ymakorligining maxobatliligi, yirikligi, o’ymalarini chuqurligi va ko’p qavatliligi bilan farklanib turadi.

Sulaymon Xo’jaev 1866 yili Toshkentdagi So’zukota maxallasida yashovchi usta va duradgor Nasrulloxuja oilasida dunyoga keldi. Yoshlik davrida Sulaymon otasiga yordam berar, lekin kunglida Yog’och o’ymakorligini urganishga bulgan istak tobora kuchayib borardi. U 17 yoshida usta Iskandar Mirzayokubov ustaxonasida, so’ngra 1891 yildan esa usha davrdagi Yog’och o’ymakorligining pargori I ustalaridan biri Toshpulat Ayubxujaevga shogird tushib Yog’och o’ymakorligining sir-asrorlarini urgandi.

"Sulaymon ustozini xurmat qilar, qiyinchshshklarni sabr-chidam xamda uta mexnatsevarligi bilan engil, xaqiqiy usta bulishga astoydil x,arakat qilardi. Keksa ustoz Toshpulat Ayubxujaev vafot etgach, uning san'atini davom ettirdi. Ustozdan estalik bulib Qolgan asboblar yordamida Sulaymon o’zi mustaqil juda ko’p duradgorlik ishlari derazalar, eshiklar, darpardalar yasadi" (S.S.Bulatov "O’zbek xalq amaliy bezak san'ati", T,"Mexnat",1991,230-bet.).

Usta S.Xujaev 1913 yilda Sankt-Peterburg shazfida bulib utgan Butunrossiya kasblari kurgazmasida naqshlangan kursichasi va kush qafasi bilan ishtirok etib, ana shu ajoyib ishlari uchun "Za poleznie trudo`" bronza medali va diplom bilan taedirlandi. Bundan taphari S.Xujaev juda ko'plab kurgazmalarda o'zining ijod namunalari bilan ishtirok etdi. 1923 yilda Rossiya qishloq xujaligi xunarmandchilik kurgazmasida, 1927 yilda xalklar san'ati kurgazmasida katnashib 1-darajali diplom bilan takdirlandi. 1937 yilda Parijda bulib utgan san'at va texnika kurgazmasida qatnashib yuksak baxr oldi.

Usta Sulaymon Xujaev O'zbekiston xalq ustalari ichida birinchi bulib 3932 yilda Mexnat Qaxramoni unvonini o,g`di. Yog'och o'ymakorligining Toshkent maktabi namoyondalaryadan biri, pargori ustasi S.Xujaev 81 yoshida 1947 yilda vafot etdi.
atoqli naqqosh R.Najmiddinov oilasida dunyoga keldi. U dastlabki Yog'och o'ymakorligi san'atini otasidan urgandi. R.Qodirjondagi bolalikdan san'atga bulgan nshtiyoq asta-sekin unga Yog'och o'ymakorligi sir-asrorlarini qunt bilan urganishiga, sabr-tokqatli bulishga urgatdi. U o'zi mustaqil ravishda uy-ro'zgor buyumlari, qutichalar, stol, kursi va xontaxtalarni nafis va bejirim qilib bezab el e'tiboriga tushdi. Q. Xaydarov dastlab 1923 yilda Moskvada xalq xujaligi kurgazmasida xizmat qildi.

1925-29 yillarda Qo'qondagi Narimonov nomidagi internatda tugarak rax,bari, 1929-31 yillarda yosh duradgorlar tugaragiga boshchilik qildi. 1931-33 yillarda uqishini davom ettirdi. 1933-54 yillarda "Yangi ma'dan" artelida duradgor, Yog'och o'ymakori va 1954-57 yillarda esa qukrn mo'zeyida ta'mirlovchi bulib ishladi. U o'zining faoliyati davomida ko'plab eshiq ustun, kursi, xontaxta, kugicha va boppqa turli buyumlarni Yog'och o'ymakorligi bilan go'zal va jozibador qilib bezab shuxrat qozondi.

Bugungi kunda Qodirjon Xaydarov qurdirgan Qo'qon tarixi mo'zeyidagi kravat, Toshkentdagi Tarix (avvalgi Lenin markaziy mo'zeyining Toshkent filiali) mo'zeyining eshigi, Xalklar Dustligi saroyining eshigi va boihalar uning o'ymakorlik san'ati an'analarini yangi motivlar bilan boyitganini kursatdi. Qodirjon Xaydarov 1963 yildan O'zbekiston Xalq rassomi, 1970 yili Respublika Xamza mukofoti sovrindori, bir nechta ordenlar sox;ibi buldi. Yog'och o'ymakorligining islimiy va pargori ustasi, ajoyib san'at soxibi 1q.Xaydarov qutqon shaxrida vafot etdi.

Tayanch tushunchalar:

1. Tarx — chizma, reja, eskez, loyixa.
2. Islimiy - usimliksimon naqsh turi.
3. Pargor - sirkul.
4. Pargori naqsh - sirkul yordamida chizilgan naqsh.
5. Zamin, asos - naqsh bezagining guldan tashqari tag qismi.
6. O'yma — sirtni uyib, zarb berib ishlash.
7. O'ymakorlik - uyib naqsh solish kasbi. q.xchooupi muqyudkamlash uchuy savollar:
1. Yog'och uimakorligi tarixi xaqida nimalarni bilasiz.
2. O'ymakorlik deganda nimani tushunasiz.
3. Temur va Temuriylar davrida Yog'och o'ymakorligi.
4. Yog'och o'ymakor ustalaridan kimlarni bilasiz.
5. Yog'och o'ymakorlik maktablari.
6. Sulaymon Xujaev xaqida gapirib bering.
7. Toshkent o'ymakorligining Xiva o'ymakorlik maktabidan farqi nimada.
8. Maxobatli Yog'och o'ymakorligi qaysi maktabga xosq
9. Qaysi maktab vakillari o'yma yo'zasini ranglaydilar (Qodirjon Haydarov ijodidan namunalar bilasizmi .

2-MA'RO'ZA. 1 SOAT.

## MAVZU: TEXNIKA XAVFSIZLIGI, ASBOB USKUNALAR VA DASTGOXLARNI ISHCHI XOLATGA TAYYORLASH.

REJA

1. Yog'och o'ymakorligi xonalarini jixozlash.
2. Asbob-uskunalarni ishchi xolatga tayyorlash va ulardan tugri foydalanish.
3. Dastgoxlarni ishchi xolatga tayyorlash va ulardan tugri foydalanish.
4. O'ymani bajarish bosqichlari.

Adabiyotlar: 7; 8; 9; 15; 17; 19; 20.

Kishining ruxiy xolati o'zi bajarayotgan ishida, yumushida o'z aksini topmasdan qo'ymaydi. Kishi ruxiyatini ko'tarishda esa xonaning jixrzlanishi, kulayligi, ozoda va orastaligi dam muxim axamiyatga ega. Yog'och o'ymakorligi xonasini jixrzlashda duradgorlik xonalarini jixozlashning umumiy kridalaridan kelib chiqqan xqolda qisman bulsada foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. )qdr 5ir asbob-uskunalar, xom-ashyolar, kurgazmali kurollar, talabalarning tayyor ishlari, dastgoxlar tartib bilan o'z joyiga quyilmogi lozim.

Yog’och o’ymakorligi ustaxonasida bevosita talaba va uqituvchi foydalanadigan maydon 50-60 m2 bo’lsa, xar bir talabaning o’rni bir-biridan 60 sm, katorlar orasi 1 m dan o’zokdikda bulsa yanada
xarakatlanish qulay bo’ladi. Bundan taihari xonaga yoruglik tushishini ta'minlash, buning iloji bulmasa kundo’zgi yoruglik lampalari yoki stol lampalari bilan ta'minlash lozim.

Yog’och o’ymakorligi ustaxonasida talaba turli yumushlarini bajarishga tugri keladi. Jumladan, chizmachiliq naqqoshliq duradgorliq o’ymakorlik va xokazo ishlarni tashkil etishda jaroqatsiz faoliyat kursatishga erishmoq uchun avvalo asbob-uskunalarni ko’zdan kechirib chiqmoqni takrzo etadi. "Men bu moslamada ishlamoedaman" deb ikkinchi moslamaga e'tiborsizlik churli kungilsiz zqolatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Faoliyatni boshlashdan oldin albatta maxsus ish kiyimini kiyib olish zarur. Turli asboblar bilan ishlashda, masalan, o’ymani bajarish uchun iskana va bolgani (Yog’och tuqmoq, kiyankani) ushlash qoidalariga amal qilgan zqolda, ya'ni iskanani bushroq, bolgani esa Qattiqroq siqib ushlash zarur.

Dastgoxlarda ishlashda esa uni yurgizishdan oldin barcha simlar, o’zellarning izolyatsiyasi butunligi ko’zdan kechiriladi. Agar ba'zi simlarning izolyatsiyasi ochilib qolgan, stanok erga ulanmagan bulsa, tayyorlanma urnatiladigan moslama mustadkam madkamlanmagan bulsa stanok yurgizilmaydi. Topilgan kamchiliklar zaruriy mutaxassisni yoki ustani chaqirib to’zatilgandan so’nggina ishlashga ruxsat beriladi. Agarda arralash, randalash va teshishga tugri kelib qolsa tayyorlanmani urnatmasdan, salt xolatda yurgizib kurishdan oldin keskichlar mustaxkamligini, keskirligini tekshirib kurish zarur.

Stanok yurib turgan vaqtida tayyorlanmani ulchab kurish, stanokdan olish va yana qaytarib quyish mumkin emas. Faqatgina bu ishlarni stanokni uchirgandan so’nggina bajarish maqsadga muvofiq bo’ladi. Stanokda ishlash jarayonida oyoq tagida taxta panjaraning mavjudligi, stanokda ximoya vositalarining butunligiga e'tibor perish joiz.

Ish urnining tartibli, ozoda, toza sakdash xom-ashyolarni, taxta, payraxa, qirindi va chiqindilar yigishda qulqop, xokondoz, ' bilan ishlash zarur. Taxtalarni tilishda, yunishda, randalashda, arralashda, tigini va tishlarini utkirlash, charxlash, kirolini tukishda kayroktoshning qarakatlanishiga e'tibor bermoq lozim. Kirindi va chikindilarni bir joyga tuplab ko’ymasliq yongin qavfsizligi koidalariga rioya kilish zarur.

Dastgoxda ishlashga mavjud kridalarni o'zlashtirgan va rioya qiladigan talabalargagina maxsus daftarga imzo chekkandan keyin ruxsat etiladi.

Yog'och o'ymakorligida taxtachalarni o'ymaga tayyorlab olingach unga moslab axta (ulgi, nusxa) sini va xonani tayyorlab olinadi. Naqshning xar bir elementini, qismini, turini, guruxini uyishda "Oddiydan murakkabga, osondan kiyinga" tamoyiliga rioya kilib borish lozim. Nakgilarning kanaka gurudga mansubligi, tayyorlanadigan buyumning katta yoki kichikligiga karab, dastlab Naqshning yarim gajaq gajaq novdalari, chiziklari, bandlari baliq sirtli iskana bilan kesiladi. Naqshlar atrofi tulikq kesib bulingach, maxsus uchi egik iskana bilan naqshning zamini uyilib chukurlashtiriladi. Tekislashda esa tugri iskanalar ishlatiladi.

O'ymani bajarish davomida xar bir iskanani extiyotkorlik bilan o'z urnida va urinli ishlatishni urganish lozim. Bu esa uyilayotgan yo'zaning sifatli, kurkam va jozibador chiqishiga olib keladi, Iskanalarni ishlatib bulgach notugri joyga quyish, bir-biriga urintirish asbobni tezda utmas bulishiga olib keladi va o'ymani sifatiga putur etkazadi.

***Tayanch tushunchalar:***

1. Axta, ulgi, nusxa — naksh yoki rasmni krgozga chizib, chiziq yullari igna bilan teshilib tayyorlangan andaza.
2. Bolta — duradgorliq o'ymakorlik zargarlik va xakazolarda ishlatiladigan Yog'och dastali asbob.
3. Dastgox ~ duradgorlik qurilmasi, stanok
4. Salt xolat - dastgoxning yurgizilmasdan oldingi, tinch xolati.
5. Qayroq - pichoq ustara, iskana, tesha va boshka asboblarni kayrab, utkir qiladigan tosh.

Mavzuni ustadkamlash uchun savollar:

1. Ustaxonada xar bir talaba uchun qancha maydon bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi deb xisoblaysiz.
2. Xar bir talabaning qator orasidagi masofa qancha bulmog'i lozim.
3. Xar bir talabaning ish urni bir-biridan kancha o'zoklikda bulmogi lozim.
4. Dastgoxni yurgizishdan oldin nimalarni ko'zdan kechirib chikmoq zarur.
5. Ustaxonada tabiiy yorug'lik etarli bo'lmagan xollarda qanday yoritqichlardan foydalanish zarur.
6. Stanok yurib turganda nimalar ta'qikdanadi.
7. Stanok tuxtab turgandagi xolat qanday xolat deyiladi va sgu zqolatda nimalarni ko'zdan kechirishga ruxsat beriladi.

8. O’ymani bajarishda kaysi naqsh elementlarini kesishdan boshlash kerak.

3-MA'RO’ZA. 1 SOAT.

## MAVZU: ME'MORCHILIKDA YOG’OCH O’YMAKORLIGINING TUTGAN O’RNI

REJA:

1. Qadimiy me'morchilik yodgorliklari.
2. Me'morchilikka Yog’och o’ymakorligining kirib borishi.
3. Amir Temur kurdirgan me'moriy obidalar va ulardagi Yog’och o’ymakorligi.
4. XIX-XX asrlarda bunyod etilgan me'morchilik obidalari va Yog’och o’ymakorligi.

Adabiyotlar: 3; 5; 6; 9; 10; 11; 12; 13; 16; 21; 22; 23; 24; 27.

Miloddan avval, xususan tosh davrida insonlar Teshiktosh kabi gorlarda asosan daraxt shoxlari va paxoldan ishlangan konussimon joylarda yashab kelganlar. axolining bir kismi kuchmanchilikdan utroklikka utgach, tosh, guvala, paxsa va sinchli uylar kurila boshladi. Bronza davrida O’zbekiston xududining janubi -Sopoltepada murakkab me'morchilik ansambllari vujudga keldi. Ilk Temir davriga kelib esa tugri turtburchak va aylana tarxli qal'achalar bunyod kilina boshlandi.

Grek-Baktriya va Kushon podsholiklari davrida kurilgan saroylar yanada xashamatli va yanada murakkab kompozitsiyaga ega bulgan bulyb, markaziy zali eki xoblisi turli maksadlarga xizmat qiladigan ko’p sonli binolar bilan uralgan, bino fasadlariga ko’p sonli ustunli ayvonlarga tutash kilib kurilgan.

«Surxondaryo voxasida Yumaloqtepa qaridan topilgan asrlariga Yog’och o’ymakorligi san'atining namunalari e'tiborga molikdir. Bundan bir yarim ming yilcha mukaddam mazkur joyda maxalliy xukmdor xukmdorlik qilgan. Mutaxassislar bu joyda ulkan san'atga daxldor naqsh o’ymakorligi bulganligini qayd etmoedalar. Bu yangilik diyorimizda Yog’och o’ymakorligi san'atining ancha oldindan rivojlanganligini isbotlaydi» (Karimov X "Usta Qodir". -T., G.G’ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981, b-bet).

Ko’rinib turibdiki, O’rta Osiyoda, shu jumladan Respublikamiz xududida xam IX-XI asrlarga kelib madaniyat yana o’sa boshladi. IX asrda Samarqandning o’zi mustaqil davlat bulib krlishi madaniyat va

san'at rivojiga o’z ta'sirini utkazmay qolmadi. Bu esa xalq madaniyatida yangi burilish yasashga olib keldi. Shu davrga kelib Abu Ali ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Abu Rayxon Beruniy, Muxammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy kabi buyuk olimlar, faylasuflar, yozuvchilar, adabiyot va madaniyat arboblari etishib chikdi. Bu kabi allomalarning utkir zexni Buxorodagi Ismoil Samoniy maqbarasi, Narpay tumani Tim kishlogida Arab ota maqbarasi, termizdagi Kirgiz saroyi, Navoiy tumanidagi Mirsaid Baxrom maqbarasi, Navoiy shaxri yakinidagi sulton Saodat ansambli va Raboti Malik karvon saroyi singari jaxrnga mashxur bulgan me'morchilik yodgorliklarini qurilishiga olib keldi. Shular va shu kabi asori-ati»;alar usha davrlarda me'morchilik san'ati yuksak darajaga kutarilganligini, ular badiiy xunarmandlar tomonidan jozibador qilib bezatilganini kursatadi. Ilk O’rta asrlarda saroylar shaxar qal'asidan tashqarida surilgan bulsa, X asrlarga kelib shaxar tarkibida qurila boshlandi. Buxoroda qal'a oldida, Urganchda shaxdrning bosh maydonida, Samarqandda esa shaxristonda shunday saroylar bunyod etildi. Saroy me'morchiligida Yog’och konstrukturalaridan keng foydalaniddi.

Madaniyat rivojlanib borar ekan, ajoyib me'morchilik yodgorliklari qad rostlab borar ekan, o’z-o’zidan bunday yodgorliklarni milliy naqshinkor bezaklar bilan bezashda, shu jumladan, darvoza, eshiq ustun va ravoklari Yog’och o’ymakorligi bilan bezatildi. Bu esa Yog’och o’ymakorligini tez suratlar bilan usib borishiga imkon yaratib beradi. Monumental me'morchilikda Yog’och va ganch o’ymakorligi an'anaviy san'at turiga aylanib bordi. Kishini xayratga soluvchi va uta nafis, tabiiy qilib ishlangan Yog’och o’ymakorligi namunasi XII asrga tegishli bulib, u Samarqanddagi Shoxi-3inda devori orasidan topilganligini so’zimiz isboti sifatida aytib utishimiz mumkin.

Fan va madaniyat, adabiyot va san'atning rivojlanib borishi buyuk sarkarda Amir Temur nomi bilan chambarchas boglivdir. U xukmronlik qilgan davrlarda me'morchilik bilan bir qatorda amaliy bezak san'ati xam yuksala bordi. Xuja Aqmad, Kqusam ibn Abbos, Turkan Oka, Tuglik Tekin, Amirzoda, Ali Nasafiy maqbaralari Yog’och o’ymakorligi va koshin bilan jozibador kilib bezatildi.

XVI asrning oxiriga kelib Samarqandda o’zıga xos me'morchilik uslubi shakllandi. Oqsaroy, Kuk Gumbaz, Shamsiddin Kulol maqbarasi, Gumbazi Saidon, Xazrat Imom masjidi, Jaxongir maqbarasi, Dor ut-tilovat, Dor us-siyosat va boshqa shular singari me'morchilik

yodgorliklari o’zining monumentag`ligi, jozibadorligi, naqqoshlik va o’ymakorlik san'atining o’ziga xosligi bilan xamon diedatga sazovordir.
Amir Temur davrida Samarqandni balandligi 8 metrgacha bulgan devor bilan aylantirildi. Shaxarni kesib utadigan Buxoro -Farg’ona yulini kengaytirib savdo-rastalari, timlar qurdirdi. U o’zi istilo qilgan ulkalardagi eng mashx,ur me'mor va xunarmandlarni Samarqandga olib kelishi shaqarda xunarmandlarning go’zar va madallalarini vujudga keltira boshladi. Bu esa san'atning yanada gurkirab rivojlanishiga, yirik-yirik Buxorodagi Labixovo’z ansamblini vujudga kelishiga zamin yaratdi. Shu va shunaka asori-atiqalar an'anaviy tarzda pishiq gishtdan bunyod etilgan, ansambllarning ichki va taphi bezaklariga xam zur e'tibor berilib, san'atning keng qo’lamda rivojlanib borayotgan koshin, ganch va Yog’och o’ymakorliklari bilan jozibador qilib bezatiddi.

Amir Temur o’zi qurdirgan imoratlarni o’zgacha bir maf, o’zgacha bir ishtiyoq bilan qurdirganki, buni Samarqand va Qashqadaryo voxasini bir-biridan ajratib turuvchi Turkiston tog’ tizmalarida bunyod etilgan Oqsaroy me'morchilik yodgorligi misolida xam ko’rishimiz mumkin. Ushbu obida 20 yil davomida ko’rilgan bo’lib, ko’kka viqr bilan qad rostlab turibdi. Oqsaroy ikkita yirik ravoedan iborat va bu ravoklar 38 metrdan so’ng kubba shaklida birlashtirilgan. Xar ikki arkning oraligi 22,5 metrni tashkil etadi.

XVI-XVII asrlarga kelib me'morchilikda inshootlarning kurinishlari yanada takomillashdi, monumental binolarning tarxi, qiyofasiga o’zgartirishlar kiritildi, xunarmandlarning artellari vujudga keddi. Shu davrlarda bunyod etilgan Mir Arab madrasasi, Xuja Zayniddin masjid-xonaqosi, Chorbakir minorasi, Sherdor madrasasi, Buxoro va Toshkentda bunyod etilgan Kukaldosh madrasalarida usha davr Yog’och o’ymakorligining ajoyib namunalari o’z aksini topgan.
Shu davrlarda Qo’qonda Madrasai Mir nomi bilan xalts orasida maihur Norbutabiy madrasasi XVIII asrning oxirida bunyod etiddi. Daxmai Shoxon ansambli 3 qismdan iborat: peshtoq, 2 ustunli ayvon-masjid, Norbutabiy va uning avlodlari daxmasidir. Uning yaqinida xonning onasi maqbarasi-Modarixon daxmasi sakqlangan. Peshtoq,g`i, gumbazli bu binolar sirlangan gisht, koshin bilan bezatilgan. Xudoyorxon urdasida shaqarning muqim arxitektura yodgorliklaridan, ko’p ustunli qilib qurilgan, buyama va o’yma naqshlar bilan jozibador qilib bezatilgan jom'e masjidi XIX asrning oxiri X-XII asrning boshlarida qurilgan. 1914 yilda esa Komil qozi madrasasi bunyod etildi.

Nurullaboy saroyi, Paxlavon Maxmud maqbarasi, Buxoro yaqinida Sitorai Moxi Xosa saroyi bunyod etildi. Saroy kurilishlarida xalq me'morchiligi kompozitsiya uslublaridan foydalanildi. Bunda ichki xobli, xrvo’z, ko’p ustunli ayvon va sinchli imoratlardan tashkil topdi.
Amaliy bezak san'atining bir qator turlarida maxalliy uslublar shakllandi. Naqqoshlikda, ganch va Yog’och o’ymakorlikda islimiy nalgan rivoj topdi. Yog’och o’ymakorligida o’ymalarni bajarishning yangidan-yangi uslublari bilan ustunlar, eshiklar, ravoklar va boshqalar jozibador qilib bezatiddi. Asrimizning boshlariga kelib Xivadagi kuxna Ark Toshxovli, Nurillaboy, Buxorodagi Minorai Kalon, Ismoil Samoniy maqbarasi, Samarqanddagi Sherdor, Tilloqori madrasalari ta'mirlandi, Ulugbek madrasasining qulay boshlagan minorasi qayta tiklandi.

Bu davrlarda etuk amaliy san'at ustalari etishib chikdi. Abdulla Boltaev, Ota Polvonov, Ro’zimat Masharipov, Usta Shirin Murodov, Toshpulat Arslonqulov, Usmon Ikromov, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Xaydar Najmiddinov, Saidmaxmud Norqo’ziev, Toshpulat Ayubxujaev, Sulaymon Xujaev, Qodirjon Xaydarov, Maqsud Qosimov kabi bir qator ustalar amaliy bezak san'atining rivojiga munosib qissa qushdilar.

***Tayanch tushunchalar:***

1. Ark - xon turadigan joy, xon saroyi.
2. Koshin - devorlar sirtini krplash uchun ishlatiladigan sirkor bezak material turi.
3. Qubba - gumbazsimon qabariq sirt.

Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar:

1. Tara; deganda nimani tushunasiz
2. Temir davrida qanday tarx,li qal'alar bunyod etildi.
4. Aylana taradagilarichi.
5. IX—XI asrlarda kdnday asori-atikdlar barpo etildiq
6. Ismoil Samoniy, Arab Ota, Mirsaid Baxrom maqbaralari, Qirqkiz saroyi, Sulton Saodat ansambli va Raboti Malik karvon saroyi qaysi asrlarda bunyod etilganq
7. Kukaldosh madrasasi qaysi shadardaq
8. Qo’qonda kanday obidalar barpo etildiq
9. XIX-XX asrlarda qaysi yodgorliklar bunyod etilgan.Xivada qanday yodgorliklar bor.

4-MA'RO’ZA. 1 SOAT.

## MAVZU: O’YMAKORLIKDA ISHLATILADIGAN MATERIALLAR VA ULARNING TURLARI

*REJA:*

1. O’ymakorlikda ishlatiladigan Yog’och materiallar.
2. Daraxt turlari.
3. Daraxtlarni o’ziga xos xususiyatlari.
4. Yog’och o’ymakorligida ishlatiladigan Yelimlar.
5. Yelimlangan Yog’och xom-ashyosini o’ymaga tayyorlash.

Adabiyotlar: 4; 7; 8; 9; 15; 17; 19; 20.

Yog’och o’ymakorligi mashgulotlarida o’ymakorlikda foydalaniladigan Yog’och materiallari, ularning turlari, fizik va kimyoviy xususiyatlari, zaxiralari va botshalarni bilish muxim axamiyatga ega.

Yog’och materiallari turli jinsdagi daraxtlardan olinadigan xom-ashyo. Binokorlikda, qurilishda, mebelsozlikda, Yog’och o’ymakorlikda asosiy xom-ashyo sifatida ishlatiladigan Yog’ochlar daraxtlar tanasidan olinadi. Daraxt tanasi o’zaq Yog’ochliq shoxlar, tola va pustloklardan to’zilgan. Yog’och xom-ashyosi kuyidagi guruxdarga bulinadi:

a) tabiiy xom-ashyo;

b) turli bo’zilishlarga, chirishlarga qarshi antiseptik moddalar shimdirilgan Yog’och xom-ashyosi;

v) Presslangan Yog’och xom-ashyosi;

g) yelimlangan Yog’och xom-ashyosi;

d) qatlam-qatlam Yog’och xom-ashyosi;

e) qatlamli presslangan Yog’och xom-ashyosi;

Yog’och o’ymakorligida asosan 1-guruxga kiruvchi, ya'ni, tabiiy Yog’och gulalardan olinadigan taxtalar, yunilgan xom-ashyo ishlatiladi. O’zbekistonda Yog’ochlarning yumshoq, »;atti1q va juda qattiq gulalari olinadigan nina bargli va yaproq bargli turlari mavjud.

***Daraxtlar buyiga qarab 3 guruxga bulinadi:***

1. 35 m dan baland ~ chinor, teraq tut, qora kayin, qaragay;
2. 25 m dan 35 m gacha - qayragoch, yongoq, oq qayin, tol, qatrangi;
3. 25 m gacha - zarang, chetan, shumurt, mevali daraxtlarga xamda butalarga bulinadi.

Nina bargli daraxtlardan olinadigan Yog'ochlar kurilishda, jumladan, Yog'och o'ymakorligida ko'proq ishlatiladi, chunki ularning tarkibida smolasi ko'proq, tez chirimaydi, taxtasi tugri, o'zun, silliq, ishlov berish oson xisoblanadi. O'ymakorlikda ishlatiladigan rangiga, xiliga, turiga, tabiiy guliga, tovlanishiga qarab tanlanadi va turli mevali, shu bilan birga, yaproq bargli daraxtlar xam ishlatiladi.

Yog'och o'ymakorligi yasayotgan buyumiga kdrab Yog'och materiallarining xususiyatlari, daraxtlarning turlari, rangi, ishlov berishning qiyin-osonligi va ishlov berilgandan keyin buyumlarning sifatli chiqishi va saklanishini bilishlari uchun Yog'ochlar olinadigan daraxtlarni urganishlariga tugri keladi.

